TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	



BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI

Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi

Namangan davlat texnika universiteti

Buxgalteriya va audit kafedrası doktoranti

E-mail: gulrux_11@mail.ru

ORCID: 0009-0003-5878-3095

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston banklari tomonidan taqdim etilayotgan Green Advisory Services (Yashil maslahat xizmati) ning mohiyati, asosiy turlari, amaliy qo'llanilish yo'nalishlari hamda banklar uchun moliyaviy va institutsional foydalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida yashil maslahat xizmatlarining qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirishdagi roli empirik misollar asosida baholandi. Tadqiqot natijalari Green Advisory Services banklar uchun yashil moliyalashtirish strategiyalarini rivojlantirish, kredit risklarini kamaytirish va barqaror kredit portfelini shakllantirishda samarali instrument ekanini ko'rsatadi. Olingan xulosalar bank sektorida yashil moliya mexanizmlarini keng joriy etishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yashil moliya, banklar, Green Advisory Services, yashil kreditlar, barqaror rivojlanish, ESG mezonlari, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, ekologik risklar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the essence, main types, practical applications, and financial and institutional benefits of Green Advisory Services provided by banks in Uzbekistan. The study evaluates the role of green advisory services in financing renewable energy, energy efficiency, and environmentally sustainable projects based on empirical examples. The research findings demonstrate that Green Advisory Services serve as an effective instrument for banks in developing green financing strategies, reducing credit risks, and forming a sustainable loan portfolio. The conclusions obtained have significant practical relevance for expanding the implementation of green finance mechanisms within the banking sector.

Key words: green finance, banks, Green Advisory Services, green loans, sustainable development, ESG criteria, renewable energy, energy efficiency, environmental risks, financial sustainability.

Аннотация. В данной статье анализируются сущность, основные виды, практические направления применения, а также финансовые и институциональные преимущества Green Advisory Services (зеленых консультационных услуг), предоставляемых банками Узбекистана. В рамках исследования на основе эмпирических примеров оценивается роль зеленых консультационных услуг в финансировании проектов в области возобновляемой энергетики, энергоэффективности и экологически устойчивого развития. Результаты исследования показывают, что Green Advisory Services являются эффективным инструментом для развития стратегий зеленого финансирования банков, снижения кредитных рисков и формирования устойчивого кредитного портфеля. Полученные выводы имеют практическую значимость для расширения внедрения механизмов зеленых финансов в банковском секторе.

Ключевые слова: зеленые финансы, банки, Green Advisory Services, зеленые кредиты, устойчивое развитие, критерии ESG, возобновляемая энергия, энергоэффективность, экологические риски, финансовая устойчивость.

KIRISH

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarning keskinlashuvi jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish hamda yashil transformatsiya masalalarini ustuvor yo'nalishga aylantirdi. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda global miqyosda karbonat angidrid (CO₂) emissiyasi 36,8 mlrd tonnani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan qariyb 12 foizga oshgan (IEA, 2024). Ushbu holat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, xususan moliya sektorida ekologik mas'uliyatli yondashuvlarni joriy etish zarurligini taqozo etmoqda.



Jahon banki baholashlariga ko'ra, 2030-yilgacha iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish va barqaror infratuzilmani rivojlantirish uchun global miqyosda yiliga 4-4,5 trln AQSh dollari miqdorida yashil investitsiyalar talab etiladi (World Bank, 2023). Ushbu moliyaviy ehtiyojning kamida 60 foizi xususiy sektor, jumladan bank tizimi orqali jalb qilinishi kutilmoqda (UNEP, 2023).

Yashil moliya mexanizmlarining kengayishi bank sektorining faol ishtirokini talab etadi. Climate Bonds Initiative ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga kelib jahon bo'yicha chiqarilgan yashil obligatsiyalar umumiy hajmi 2,9 trln AQSh dollaridan oshgan bo'lib, so'nggi besh yil davomida ularning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 12-15 foizni tashkil etgan (Climate Bonds Initiative, 2024). Shu bilan birga, xalqaro bank amaliyotida yashil kreditlarning banklar umumiy kredit portfelidagi ulushi 10-12 foiz atrofida shakllanmoqda (IFC, 2023).

So'nggi yillarda banklar tomonidan an'anaviy yashil moliyaviy instrumentlar bilan bir qatorda Green Advisory Services (yashil maslahat xizmatlari) jadal rivojlanmoqda. McKinsey & Company tadqiqotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar banklarida ESG va yashil maslahat xizmatlaridan olinadigan komissiya daromadlari banklarning umumiy nobank daromadlari tarkibida 6-9 foizgacha ulushni tashkil etmoqda (McKinsey & Company, 2023). Bu esa Green Advisory Services xizmatlarining banklar uchun iqtisodiy jihatdan ham istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.

Green Advisory Services xizmatlari orqali banklar mijozlarga ESG mezonlarini joriy etish, uglerod izini baholash va qisqartirish, energiya samaradorligini oshirish hamda xalqaro yashil moliya standartlariga mos loyihalarni tayyorlash bo'yicha kompleks maslahatlar taqdim etadi. Yevropa Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqidagi yirik tijorat banklarining 70 foizdan ortig'i maxsus yashil maslahat bo'linmalarini tashkil etgan bo'lib, ushbu xizmatlardan foydalangan korxonalarda energiya sarfi o'rtacha 15-25 foizga, CO₂ emissiyasi esa 10-20 foizga qisqargan (ECB, 2024).

O'zbekiston sharoitida ham yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari bosqichma-bosqich jadallashmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda respublika banklari tomonidan moliyalashtirilgan yashil loyihalar hajmi 1,3 mlrd AQSh dollaridan oshib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 2,4 barobarga ko'paygan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023). Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy energiya balansidagi ulushi qariyb 10 foizni tashkil etib, 2030-yilgacha uni 25-30 foizga yetkazish strategik maqsad etib belgilangan (World Bank, 2023).

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda bank tizimi, xususan Green Advisory Services xizmatlarining institutsional rivoji muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bank tizimi orqali yashil moliyani rivojlantirishda Green Advisory Services xizmatlarining zamonaviy amaliyoti, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda O'zbekiston bank tizimi uchun moslashuv imkoniyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil moliya tushunchasi barqaror rivojlanish nazariyasining amaliy moliyaviy mexanizmi sifatida shakllanib, uning asosiy maqsadi moliyaviy resurslarni ekologik jihatdan barqaror va ijtimoiy mas'ul loyihalarga yo'naltirishdan iboratdir (UNEP, 2023; World Bank, 2023). UNEP (2023) ta'kidlashicha, yashil moliya iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, biologik xilma-xillikni saqlash hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish jarayonlarida muhim katalizator vazifasini bajaradi. World Bank (2023) tadqiqotlarida esa yashil moliya iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi strategik instrument sifatida baholanadi.

Ilmiy adabiyotlarda bank tizimi yashil moliyaning asosiy institutsional tashuvchisi sifatida e'tirof etiladi (Scholtens, 2006; Weber, 2018). Scholtens (2006) hamda Weber (2018) tadqiqotlarida tijorat banklari kreditlash, investitsiya va maslahat xizmatlari orqali yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtiruvchi muhim subyekt sifatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, Weber (2018) banklarning yashil loyihalarda ishtiroki nafaqat yangi imkoniyatlar, balki texnologik, tartibga solish (regulyator) va reputatsion risklarni ham yuzaga keltirishini ta'kidlaydi.

Yashil moliya dastlab yashil kreditlar va ekologik investitsiyalar shaklida rivojlangan bo'lsa, keyinchalik yashil obligatsiyalar, barqaror kredit liniyalari hamda ESG mezonlariga asoslangan moliyaviy mahsulotlar bilan kengaydi. Climate Bonds Initiative (2024) ma'lumotlariga ko'ra, yashil obligatsiyalar bozorining jadal rivojlanishi banklarning ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Biroq Flammer (2021) hamda Bolton va Kacperczyk (2021) tadqiqotlarida yashil moliyaviy instrumentlarning rivojlanishi bilan bir qatorda "greenwashing" riski, axborot asimmetriyasi va ESG ko'rsatkichlarini noto'g'ri baholash xavfi mavjudligi qayd etiladi. Mazkur holat banklar tomonidan ko'rsatiladigan maslahat xizmatlarining sifati hamda risklarni baholash mexanizmlariga yuqori talab qo'yadi.

IFC (2023) tadqiqotlariga ko'ra, yashil kreditlash banklar uchun uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik manbai bo'lishi mumkin, biroq ekologik loyihalarning murakkabligi va texnologik noaniqligi kredit risklarini chuqur va aniq baholashni talab etadi (IFC, 2023; UNEP, 2023). Mualliflar ekologik loyihalarda defolt ehtimoli nisbatan past bo'lishi mumkinligini tan olgan holda, noto'g'ri maslahat va yetarli ekspertiza mavjud bo'lmaganda bank risklari ortishini ta'kidlaydi.



So'nggi ilmiy tadqiqotlarda yashil moliya doirasida Green Advisory Services (GAS) bank faoliyatining alohida yo'nalishi sifatida ajratib ko'rsatilmoqda. McKinsey & Company (2023) yashil maslahat xizmatlarini banklar tomonidan ko'rsatiladigan yuqori qo'shimcha qiymatga ega intellektual xizmatlar sifatida tavsiflaydi (McKinsey & Company, 2023; OECD, 2022). Ushbu xizmatlar ESG strategiyalarini ishlab chiqish, uglerod izini baholash va yashil loyihalarni xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Kölbel va boshqalar (2020) hamda Weber va Feltmate (2016) tadqiqotlarida GAS bilan bog'liq asosiy risklar sifatida maslahat sifati riski, reputatsion risk hamda huquqiy javobgarlik xavfi ko'rsatiladi. Agar bank tomonidan berilgan yashil maslahatlar amalda kutilgan ekologik yoki moliyaviy natijani bermasa, bu bank obro'siga va mijozlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

OECD (2022) tadqiqotlariga ko'ra, Green Advisory Services banklarning an'anaviy moliyaviy vositachilik roolidan strategik hamkorlik modeliga o'tishini ifodalaydi. Biroq ushbu transformatsiya banklardan yuqori malakali mutaxassislar, aniq metodologiyalar hamda rivojlangan ichki risk-boshqaruv tizimlarini talab etadi. Aks holda, GAS banklar uchun yangi operatsion va reputatsion risk manbaiga aylanishi mumkin.

Yevropa va Shimoliy Amerika banklari tajribasi Green Advisory Services xizmatlarining institutsional jihatdan shakllanganini ko'rsatadi. ECB (2024) hisobotiga ko'ra, Yevropa Ittifoqidagi yirik banklar ESG va yashil maslahat bo'limlarini risklarni boshqarish tizimlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etgan. Weber va Feltmate (2016) tadqiqotlarida ushbu yondashuv banklarga mijoz korxonalarning energiya samaradorligini oshirish bilan bir qatorda kredit va reputatsion risklarni kamaytirishga yordam berayotgani ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Osiyo mamlakatlarida, xususan Xitoy va Janubiy Koreyada, Green Advisory Services davlat siyosati bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib, risklar hukumat, bank va xususiy sektor o'rtasida taqsimlanmoqda (UNEP, 2023). Bu esa yashil maslahat xizmatlarining barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston bank tizimi sharoitida yashil moliya bo'yicha ilmiy tadqiqotlar faollashayotgan bo'lsa-da (Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023; World Bank, 2023), Green Advisory Services xizmatlarining risklari, iqtisodiy samaradorligi hamda bank daromadlariga ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Mahalliy tadqiqotlarda asosan yashil kreditlashga e'tibor qaratilib, maslahat xizmatlarining institutsional modeli va risk-boshqaruv mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston sharoitida Green Advisory Services xizmatlarining bank tizimiga integratsiyalashuvi, ularning moliyaviy va reputatsion risklarga ta'siri hamda iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan empirik tadqiqotlar deyarli mavjud emas (IFC, 2023; OECD, 2022). Ushbu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bank tizimi orqali yashil moliyani rivojlantirishda Green Advisory Services xizmatlarining zamonaviy amaliyotini, ularning risklari va iqtisodiy ahamiyatini kompleks tahlil qilish hamda O'zbekiston bank tizimi uchun mos institutsional va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bank tizimi orqali yashil moliyani rivojlantirishda Green Advisory Services xizmatlarining o'рни, iqtisodiy ahamiyati va amaliy samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot aralash (mixed-methods) yondashuv asosida olib borilib, miqdoriy va sifat tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Ushbu yondashuv mavzuni har tomonlama va tizimli o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqot tavsifiy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda xalqaro va milliy bank amaliyotida Green Advisory Services xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari, institutsional jihatlari hamda moliyaviy natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida bank tizimi doirasida yashil moliyani rivojlantirish jarayonlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan Green Advisory Services xizmatlarining tashkil etilishi, moliyaviy samaradorligi va iqtisodiy natijalaridan iborat.

Tadqiqot doirasida xorijiy mamlakatlar banklari hamda O'zbekiston tijorat banklarining yashil moliya va maslahat xizmatlari bo'yicha amaliy tajribasi qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar quyidagi manbalar asosida shakllantirildi:

- xalqaro moliyaviy institutlar va tahliliy markazlarning rasmiy hisobotlari;
- banklar va moliyaviy tashkilotlarning ochiq statistik ma'lumotlari;
- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankining rasmiy statistik axborotlari;

- ilmiy maqolalar va monografiyalar.

Tahlil uchun asosan 2018-2024-yillar ma'lumotlaridan foydalanildi, bu yashil moliya va Green Advisory Services xizmatlarining zamonaviy rivojlanish bosqichini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy usullardan foydalanildi:

- tizimli va mantiqiy tahlil – yashil moliya va Green Advisory Services tushunchalarining nazariy asoslarini yoritishda;



- taqqoslash usuli – xorijiy va O'zbekiston banklari tajribasini solishtirishda;
- statistik tahlil – yashil moliyalashtirish hajmlari va ularning o'sish sur'atlarini baholashda;
- kontent-tahlil – banklarning strategik va tahliliy hujjatlarini o'rganishda;
- ekspert baholash usuli – Green Advisory Services xizmatlarining amaliy samaradorligini aniqlashda.

Zarur hollarda iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun foiz ko'rsatkichlari, dinamik qatorlar hamda strukturaviy tahlil elementlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud bo'lib, ularga Green Advisory Services xizmatlari bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlarning cheklanganligi, O'zbekiston banklarida mazkur xizmatlarning endigina shakllanayotganligi hamda ayrim natijalarning sifat ko'rsatkichlari asosida baholanganligi kiradi. Ushbu cheklovlar tadqiqot natijalarini talqin qilish jarayonida inobatga olindi.

Tanlangan metodologiya Green Advisory Services xizmatlarining bank tizimidagi o'rnini tizimli baholash, xalqaro va milliy tajribani qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekiston bank tizimi uchun ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchiligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro bank amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Green Advisory Services (GAS) xizmatlari so'nggi yillarda banklarning yashil moliya portfelini kengaytirishda muhim instrumentga aylangan bo'lib, ular nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshirish, balki kredit, operatsion va reputatsion risklarni kamaytirish vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Yevropa Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqidagi yirik tijorat banklarining 70-75 foizi o'z tarkibida ESG va yashil maslahat xizmatlariga ixtisoslashgan alohida bo'linmalarni shakllantirgan (ECB, 2024). Mazkur banklarda GAS asosida tayyorlangan loyihalar umumiy yashil moliyalashtirish hajmining o'rtacha 18-22 foizini tashkil etib, bu loyihalarni tanlash va baholash jarayonlarida risklarning nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, banklarning yashil maslahat xizmatlari o'zaro bog'liq bo'lgan olti asosiy komponentdan iborat bo'lib, ular GAS xizmatlarining amaliy samaradorligini ta'minlaydi.

Birinchidan, eko-audit (Energy & Resource Audit) bank mutaxassislari yoki hamkor konsalting kompaniyalari tomonidan amalga oshirilib, elektr energiyasi, issiqlik, suv, gaz va yoqilg'i sarfi tahlili, chiqindilar monitoringi hamda korxona binolarining termovizor ko'rigini o'z ichiga oladi. Mazkur bosqich natijasida korxona uchun energiya sarfini 20-40 foizgacha qisqartirish imkonini beruvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu esa energiya samaradorligi loyihalarida kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, yashil texnologiyalar bo'yicha texnik maslahat doirasida quyosh panellari, LED yoritish tizimlari, energiya tejovchi sovutish va isitish moslamalari, suvni qayta ishlash (greywater) tizimlari hamda chiqindidan qayta foydalanish texnologiyalari bo'yicha texnik va moliyaviy tavsiyalar beriladi. Banklar ushbu jarayonda loyiha smetasini tayyorlashda ishtirok etib, texnologik xatolar bilan bog'liq risklarni kamaytiradi.

Uchinchidan, yashil loyihalar uchun biznes-reja va grant hujjatlarini tayyorlash GAS xizmatlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Banklar IRR, NPV va investitsiya qaytish muddatini hisoblash, texnik-iqtisodiy asos (TEO) tayyorlash hamda xalqaro grant va moliyaviy dasturlarga arizalar ishlab chiqishda mijozlarga ko'maklashadi. Ushbu jarayon, ayniqsa, ayollar tadbirkorligi uchun mo'ljallangan yashil loyihalarda moliyaviy barqarorlikni oshiradi.

To'rtinchidan, yashil kredit paketlariga moslashtirish (Green Financing Structuring) orqali banklar loyihaga eng maqbul moliyalashtirish manbalarini tanlaydi. Bunga past foizli yashil kreditlar, lizing asosidagi moliyalashtirish, imtiyozli kredit liniyalari hamda karbon kreditlari bilan bog'liq moliyaviy instrumentlar kiradi. Ushbu yondashuv moliyaviy yuklamani optimallashtirib, kredit qaytmaslik riskini pasaytiradi.

Beshinchidan, uglerod izi hisoblash (carbon footprint accounting) GAS xizmatlarining muhim elementi bo'lib, u Scope 1, 2 va 3 doirasida emissiyalarni aniqlash, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan CO₂ hajmini hisoblash hamda loyihaning yillik karbon tejalishini baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon MRV (Monitoring, Reporting, Verification) tizimi asosida amalga oshirilib, "greenwashing" bilan bog'liq reputatsion risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, xarajatlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar (Cost-saving Plan) orqali banklar mijozlarga energiya va resurs tejamkorligi bo'yicha aniq hisob-kitoblarga asoslangan rejalarni taqdim etadi. Masalan, LED yoritish 30 foizgacha, quyosh panellari 25 foizgacha, issiqlik izolyatsiyasi esa 20 foizgacha energiya tejalishini ta'minlashi mumkin. Natijada mijoz korxonalar uchun bir yillik tejamkorlik rejasi ishlab chiqiladi.

McKinsey & Company (2023) tadqiqotlariga ko'ra, Green Advisory Services xizmatlarini tizimli joriy etgan banklarda ESG mezonlariga mos kreditlar hajmi yiliga o'rtacha 14-16 foizga oshgan. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushi (NPL) 1,5-2 foiz punktga qisqargan bo'lib, bu GAS xizmatlarining kredit risklarini kamaytirishdagi ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Biroq ESG mezonlarini noto'g'ri baholash yoki ma'lumotlarning yetarli emasligi reputatsion va operatsion risklarni yuzaga keltirishi mumkin.



Shuningdek, Green Advisory Services banklar uchun barqaror nobank daromad manbaini shakllantirmoqda. Rivojlangan mamlakatlar banklarida GAS xizmatlaridan olinadigan konsalting va komissiya daromadlari umumiy nobank daromadlarning 6-9 foizini, ayrim yirik banklarda esa 10 foizgacha bo'lgan ulushni tashkil etmoqda (McKinsey & Company, 2023). Shu bilan birga, yuqori malakali mutaxassislar va metodologik ta'minotga bo'lgan talab operatsion xarajatlarning oshishiga olib kelishi mumkin.

1-rasmda Green Advisory Services xizmatlarining banklar uchun moliyaviy samaradorligi hamda mijozlar uchun iqtisodiy foydalari tizimli ravishda aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, GAS xizmatlari banklar uchun nafaqat yangi mijozlar oqimini jalb qilish va kredit portfelini kengaytirish, balki foiz va nobank daromadlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Xususan, konsalting va maslahat xizmatlari orqali banklar qo'shimcha komissiya daromadlarini shakllantiradi, bu esa umumiy nobank daromadlar ulushini oshiradi.

Shu bilan birga, jadvalda aks ettirilganidek, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish banklarning o'z operatsion xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratadi. Bu holat uzoq muddatda banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, kredit risklarini pasaytiradi. Reputatsiya va brend qiymatining oshishi esa banklar uchun strategik ustunlik bo'lib, ESG talablariga mos investorlar hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirishga zamin yaratadi.

Umuman olganda, keltirilgan tahlil Green Advisory Services xizmatlarining bank tizimidagi kompleks moliyaviy ta'sirini yaqqol namoyon etib, ularning kredit risklarini kamaytirish, daromad bazasini diversifikatsiya qilish va yangi yashil bozor segmentlariga chiqishdagi muhim ahamiyatini tasdiqlaydi.

GREEN ADVISORY SERVICE BANKGA MOLIYAVIY FOYDALAR					
№	Moliyaviy foyda turi	Bank uchun foydasi	Mijoz uchun foydasi	Misol / Izoh	
1.	Yangi mijozlar oqimi va kredit portfelining kengayishi	Yangi mijozlar, kredit portfeli kengayishi	Yashil loyihalar uchun moliyalashtirish	Korxona yangi kredit olishga murojaat qiladi	Energiya tejavochi kreditlar
2.	Foiz daromadlarining oshishi	Yuqori foiz daromadlari	Loyihalarni moliyalashtirish	Energiya tejavochi kreditlar	Energiya tejavochi kreditlar
3.	Konsalting va xizmatlar daromadi	Konsaltingdan qo'shimcha daromad	Ekspert maslahatlari	Energiya auditi xizmati	Energiya auditi xizmati
4.	Operatsion xarajatlarni kamaytirish	Energiyani tejash, xarajatlarni kamaytirish	Tejamkor ishlash	LED chiroqlar va suv tejash	LED chiroqlar va suv tejash
5.	Reputatsiya va brend qiymati oshishi	Barqaror bank imiji	Ishonchil yashil xizmatlar	Ekologik sertifikatlar	Ekologik sertifikatlar
6.	Moliyaviy risklarni kamaytirish	Kredit risklarini kamayishi	Barqaror moliyaviy holat	Xavfsiz yashil loyihalar	Barqaror energiya loyihasi
7.	Strategik investitsiyalar va yangi bozorlar	Yashil bozorlar, yangi investitsiyalar	Yashil texnologiyalarni joriy etish	Yashil texnologiyalarni joriy etish	Barqaror energiya loyihasi

1-rasm. Green Advisory Services xizmatlarining bank va mijozlar uchun moliyaviy foydalari

Xalqaro moliya korporatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, Green Advisory Services (GAS) asosida tayyorlangan va moliyalashtirilgan loyihalarda investitsiya samaradorligi (ROI) an'anaviy loyihalarga nisbatan o'rtacha 8-12 foizga yuqori bo'lgan (IFC, 2023). Energiya tejamkorligi va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarida kredit qaytmaslik darajasi 2-3 foiz atrofida shakllanib, bu GAS xizmatlarining risklarni boshqarishdagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Ekologik va ijtimoiy jihatdan, GAS asosida amalga oshirilgan loyihalarda energiya iste'moli 15-25 foizga, CO₂ emissiyasi esa 10-20 foizga qisqargan (UNEP, 2023). Shuningdek, ESG boshqaruv tizimlari joriy etilgan korxonalarda mehnat unumdorligi 5-7 foizga oshgani hamda korporativ boshqaruv sifati sezilarli darajada yaxshilangani kuzatilgan (OECD, 2022). Biroq monitoring tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ekologik natijalarni baholash jarayonida ayrim xatolarga olib kelishi mumkin.



O'zbekiston bank tizimida Green Advisory Services xizmatlari hozircha shakllanish bosqichida bo'lib, asosan xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida joriy etilmoqda. 2023-yilda tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilgan yashil loyihalar hajmi 1,3 mlrd AQSh dollaridan oshgan bo'lsa-da, ularning atigi 10-12 foizi professional yashil maslahat xizmatlari asosida tayyorlangan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023). Ushbu holat kredit va operatsion risklarning to'liq va tizimli baholanmasligi ehtimolini oshiradi.

Shu bois, O'zbekiston bank tizimida Green Advisory Services xizmatlarini rivojlantirish jarayonida risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish, statistik monitoring va MRV (Monitoring, Reporting, Verification) tizimlarini joriy etish, shuningdek ESG yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim strategik vazifa hisoblanadi.

O'ZBEKISTON BANKLARI MISOLIDA GREEN ADVISORY SERVICES TURLARI				
No	Bank nomi	Xizmat turi	Amalga oshirilgan amaliy ishlar / loyihalar	Bank va mijozga moliyaviy foyda
1	SQB	Yashil kredit bo'yicha maslahat	Quyosh panellari o'rnatiladigan loyiha uchun ekologik audit va moliyaviy tavsylarlar	Mijoz energiya xarajatlarini 30% kamaytirdi, bank barkaror kredit portfelini kengaytirdi
2	Ipoteka Bank	ESG va barqarorlik bo'yicha maslahat	Ko'p kvartirali yashil uylar qurilishida ESG banolash	Bank nangi yashil loyihalarni moliyalashtirdi, mijozlar ishonchi oshdi
3	Agrobank	Energiya va resurslarni tejash bo'yicha maslahat	Suvni tejash texnologiyara bilan kishloq xo'jaligi norzonalari	Suv sarfi 25% kamaydi, kredit risklari pasaydi
4	Hamkorbank	Grant va subsidiyalari bo'yicha maslahat	Mijozlar uchun UNDP va EBRD grantlaridan	Bank orqali mijoz loyihalari moliyalashtirildi, qo'shimcha foiz daromadi
5	Asia Alliance Bank	Texnik maslahat	Energiya tejamkor islab chiqarish texnologiyalarini joriy etish	Mijoz islab chinarish xarajatlari kamaytirdi, bank barkaror loyihalarni qo'llab-quvvatladi
6	TURONBANK	ESG sertifikatlash bo'yicha maslahat	ISO 14001 sertifikat ila bo'yicha maslahat	Mijoz xalkaro standartlarga moslashdi, bank obroisi oshdi
7	National Bank of Uzbekistan	Yashil audit	Korxona chiqindilarini kamarytirish	Atrof-mohit risklari pasaydi, mijoz xarajatlari kamaytirdi
9	Mikrokreditbank	Energiya samaradorligi bo'yicha maslahat	Kichik bizneslar uchun LED yoritish va energiya tejash Elektr energiyasi	Elektr energiyasi xarajatlari kamaydi, bank sodiq mijozlarni eqo'iba kiritdi
10	Orient Finans Bank	Barqaror moliyalashtirish bo'yicha maslahat	Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish	Bank yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratdi, portfel barkarorligi oshdi

2-rasm. O'zbekiston tijorat banklari misolida Green Advisory Services xizmatlari turlari va ularning moliyaviy samaradorligi

2-rasmda O'zbekiston tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan Green Advisory Services xizmatlarining asosiy turlari, ularning amaliy qo'llanilishi hamda banklar va mijozlar uchun moliyaviy foydalari aks ettirilgan. Rasmda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, respublika banklarida yashil maslahat xizmatlari asosan energiya samaradorligini oshirish, ESG baholash, yashil kreditlash hamda grantlarni jalb etish yo'nalishlarida rivojlanmoqda.

Xususan, yashil kredit va texnik maslahat xizmatlari orqali mijozlarning energiya xarajatlari o'rtacha 25-30 foizgacha kamaygan bo'lsa, banklar uchun kredit risklarining pasayishi hamda barqaror kredit portfelining shakllanishi kuzatilmoqda. Grant va subsidiyalari bo'yicha maslahat xizmatlari esa banklarga qo'shimcha foiz va komissiya daromadlarini ta'minlab, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ESG sertifikatlash va yashil audit xizmatlari banklarning reputatsion risklarini kamaytirib, ularning xalqaro standartlarga moslashuv jarayonini tezlashtirmoqda. Rasmda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston bank tizimida Green Advisory Services xizmatlari hali to'liq tizimli shakllanmagan bo'lsa-da, ularning moliyaviy samaradorlik va risklarni boshqarish nuqtayi nazaridan yuqori salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlil va empirik modellar asosida quyidagi asosiy natijalar shakllantirildi:

1. Green Advisory Services xizmatlari banklar tomonidan yashil moliyani rivojlantirishda muhim strategik instrument hisoblanib, yashil loyihalar hajmini o'rtacha 15–20 foizga oshirish imkonini beradi.

2. GAS xizmatlari banklarning nobank daromadlarini oshirish bilan birga, kredit risklarini kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.



3. Yashil maslahat xizmatlari asosida moliyalashtirilgan loyihalar sezilarli ekologik va ijtimoiy natijalarni ta'minlaydi.

4. O'zbekiston bank tizimida Green Advisory Services xizmatlarini tizimli joriy etish yashil moliya bozorini kengaytirish hamda banklarning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim zaxira hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston banklari tomonidan taqdim etilayotgan Green Advisory Services xizmatlari mamlakatda yashil moliya va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu xizmatlar mijozlar uchun energiya va resurslarni tejash orqali sezilarli moliyaviy foyda keltirsa, banklar uchun kredit portfeli risklarini kamaytirish va institutsional obro'-e'tiborni oshirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, mazkur xizmatlarning ekologik samarasi chiqindilar hajmini qisqartirish, energiya samaradorligini oshirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda namoyon bo'ladi.

Biroq tadqiqot jarayonida Green Advisory Services xizmatlarining samaradorligini cheklovchi qator omillar ham aniqlangan. Jumladan, moliyaviy va institutsional resurslarning yetishmasligi, yuqori malakali mutaxassislar tanqisligi, mijozlarning yashil moliya imkoniyatlari bo'yicha xabardorlik darajasining pastligi, boshlang'ich investitsiyalarning yuqori bo'lishi hamda monitoring va baholash tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi mazkur xizmatlar keng joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois Green Advisory Services xizmatlarining mavjud salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun banklar va moliya institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, mijozlar uchun trening va axborot dasturlarini kengaytirish hamda xizmatlar samaradorligini doimiy monitoring qilish tizimlarini takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, Green Advisory Services O'zbekiston moliya tizimida strategik ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy va ekologik manfaatlarni uyg'unlashtirish orqali yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi. Ushbu xizmatlarning rivojlanishi nafaqat banklar faoliyatining barqarorligini oshiradi, balki butun iqtisodiyot va jamiyat miqyosida ekologik mas'uliyat, moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli taraqqiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UNEP Finance Initiative (2023) Banking on Sustainability: From Strategy to Implementation. Geneva: UNEP FI. Available at: <https://www.unepfi.org/banking/banking-on-sustainability/>
2. World Bank (2023) Green Finance and Banking for Sustainable Development. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/topic/financialsector/brief/green-finance>
3. Scholtens, B. (2006) 'Finance as a driver of corporate social responsibility', Journal of Business Ethics, 68(1), pp. 19-33 <https://doi.org/10.1007/s10551-006-9037-1>
4. Weber, O. (2018) 'Environmental credit risk management in banks and financial service institutions, Business Strategy and the Environment, 27(2), pp. 139-155. <https://doi.org/10.1002/bse.1993>
5. Climate Bonds Initiative (2024) Green Bond Market Report. London: Climate Bonds Initiative. <https://www.climatebonds.net/resources/reports>
6. IFC (2023) Green Banking and Advisory Services: Emerging Practices and Lessons Learned. Washington, DC: World Bank Group. <https://www.ifc.org/en/insights-reports>
7. McKinsey & Company (2023) The Role of Banks in Scaling Sustainable Finance. New York: McKinsey Sustainability. <https://www.mckinsey.com/capabilities/sustainability/our-insights>
8. OECD (2022) ESG Investing and Climate Transition. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/finance/esg-investing/>
9. European Central Bank (ECB) (2024) Climate-related Risks and Sustainable Finance in the Banking Sector. Frankfurt am Main: ECB. <https://www.ecb.europa.eu/pub/financial-stability/html/index.en.html>
10. Weber, O. and Feltmate, B. (2016) Sustainable Banking: Managing the Social and Environmental Impact of Financial Institutions. Toronto: University of Toronto Press. <https://utorontopress.com/9781442643720/sustainable-banking/>
11. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023) O'zbekiston Respublikasida yashil moliya va bank tizimi rivojlanishi bo'yicha hisobot. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. <https://www.mf.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>